

JALOLIDDIN RUMIY MEROSIDA FALSAFIY KATEGORIYALAR: ONTOLOGIK TABIAT, ETIMOLOGIK GENEZIS VA TASAVVUFIIY INTERPRETATSIYA**Mardonova M.A. -***Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti
tayanch doktoranti*

Jaloliddin Rumiya sharq ma'naviyati va jahon falsafiy tafakkuri tarixida o'ziga xos o'rin egalagan mutafakkir, shoir hamda tasavvuf nazariyotchilaridan biri hisoblanadi, Uning asarlari, xususan, olti daftardan iborat "Masnaviyi ma'naviy" nafaqat badiiy estetik yuksakligi, balki chuqur falsafiy hamda irfoniy mazmuni bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Rumiya merosida inson, borliq, ruh, ishq, borliq, ma'rifat va eng muhimi komillik kabi fundamental tushunchalar keng yoritilgan bo'lib, ular tasavvuf falsafasining asosiy kategoriyalari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur kategoriyalar nafaqat diniy-ma'rifiy mazmun bilan cheklanmadi, balki inson va olam munosabatlari, mavjudlik mohiyati hamda ma'naviy kamolot jarayonining nazariy asoslarini ham aks ettiradi. U asosan islom diniga suyangan holda, Qur'onda keltirilgan tarixiy voqeeliklar bilan ham o'z merosini yanada boyitdi, u o'z iqtidorini o'z dini yo'lida sarfladi, masalan:

*Ehtiyot bo'l, ta'na etma, bil mudom,
Hukmi Haq oldida ojizsen tamom[2].*

U bu so'zlarni oddiy bir kinoya tarzida yetkazib bermoqchi emas, "Hukmi Haq" deganda Rumiya "Alloh"ni nazarda tutadi, va bundan ma'lumki u har tomonlama yetuklikni o'z dinidan olgani ma'lum bo'ladi.

Rumiya merosidagi falsafiy kategoriyalarni o'rganishda ularning etimologik genezisini aniqlash ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, chunki tasavvuf terminologiyasining aksariyati arab va fors tillaridagi qadimiy diniy-falsafiy tushunchalarga borib taqaladi. Ontologiya borliq va mavjudlik mohiyatini o'rganuvchi falsafiy yo'nalish sifatida Rumiya ta'limotining nazariy asoslarini tushinishda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Uning nazdida haqiqiy borliq yagona va mutlaq bo'lib, barcha mavjudotlar ana shu mutlaq borliqning tajallilari sifatida namoyon bo'ladi. Inson esa ushbu borliqni anglash va unga yaqinlashish imkoniyatiga ega bo'lgan mavjudotdir. Shu sababli Rumiya asarlarida ontologik masalalar tasavvufiy tajriba va ruhiy kamolot jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda ifodalanadi[5].

Mavzuning ilmiy dolzarbligi shundaki, Rumiya merosidagi falsafiy kategoriyalar ko'pincha adabiy yoki diniy nuqtai nazardan talqin qilinayotgan bo'lsa-da, ularning ontologik tabiati, etimologik shakllanishi va tasavvufiy interpretatsiyani bir butun tizim sifatida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Mazkur holat Rumiya ta'limotining konseptual asoslarini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi Jaloliddin Rumiya merosida uchraydiga asosiy falsafiy kategoriyalar – ishq, ruh, vujud, borliq, ma'rifat, komil inson va ilohiy birlik tushunchalarining ontologik tabiatini aniqlash, ularning etimologik genezisini o'rganish hamda tasavvufiy interpretatsiyasini "Masnaviyi ma'naviy" asari misolida qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari Rumiya falsafiy qarashlarining nazariy asoslarni yanada chuqurroq anglashga, shu bilan birga, tasavvufiy tafakkurda falsafiy kategoriyalarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mazkur tadqiqotda Jaloliddin Rumiya merosida uchraydigan falsafiy kategoriyalarning ontologik tabiati, etimologik genezisi va tasavvufiy interpretatsiyasini o'rganishda zamonaviy gumanitar fanlarda keng qo'llaniladigan bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini falsafiy tahlil, konseptual tahlil va matnshunoslik metodlari tashkil etdi. Avvalo tadqiqotda germinenvtik metod asosiy metodologik vositalardan biri sifatida qo'llanildi.

Natijalar va muhokama.

Jaloliddin Rumiya merosida falsafiy kategoriyalar tasavvufiy dunyoqarashning nazariy asoslarini tashkil etuvchi konseptual tushunchalar tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkirning "Masnaviyi ma'naviy" asari nafaqat badiiy-adabiy yodgorlik, balki tasavvuf falsafasining muhim

manbalaridan biri hisoblanadi. Asarda inson, borliq, ilohiy haqiqat va ma'naviy kamolot bilan bog'liq masalalar ko'plab ramziy obrazlar va falsafiy kategoriyalar vositasida ifodalangan. Rumiylar tomonidan qo'llanilgan ishq, ruh, vujud, borliq, ma'rifat, komil inson va ilohiy birlik tushunchalari alohida mazmun kasb etishi bilan birga, yagona ontologik tizimning tarkibiy qismlari sifatida ham namoyon bo'ladi. Tasavvuf falsafasida kategoriyalar oddiy nazariy tushunchalar emas, balki insonning ma'naviy tajribasi va ruhiy kamolot yo'lini ifodalovchi konseptual birliklar hisoblanadi. Shu sababli Rumiylar merosidagi falsafiy kategoriyalarni o'rganishda ularning ontologik tabiati, etimologik genezisi hamda tasavvufiy interpretatsiyasini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega[1].

Rumiylar falsafasining markaziy tushunchalaridan biri ishq kategoriyasi hisoblanadi. "Ishq" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, kuchli muhabbat, cheksiz mehr va qalbiy bog'liqlik ma'nolarini anglatadi. Biroq tasavvuf an'anasida mazkur tushuncha oddiy hissiy tuyg'u doirasidan chiqib, insonning mutlaq haqiqatga intilishi va ilohiy borliq bilan birlashishga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalovchi falsafiy kategoriya darajasiga ko'tariladi. Ishq insonni o'z "men"idan voz kechishga, moddiy bog'liqliklardan xalos bo'lishga va ilohiy haqiqatni anglashga olib boruvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Masalan:

*Kimda yo'qdir ishqqa bir parvo agar,
Ul qanotsiz qush erur, bebolu par[2].*

Masnaviyda ishq ko'plab ramzlar orqali ifodalanadi. Xususan, sham va parvona, nay va nayiston, oshiq va ma'shuq obrazlari ilohiy ishqning turli qirralarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu ramzlar orqali Rumiylar insonning asl manbadan ajralganligi va unga qaytishga bo'lgan ichki ehtiyojini tasvirlaydi. Shu sababli ishq Rumiylar ta'limotida nafaqat axloqiy yoki estetik kategoriya, balki ontologik va metafizik mazmunga ega bo'lgan fundamental tushuncha hisoblanadi.

Rumiylar merosida ruh tushunchasi inson mavjudligining eng muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Arab tilidagi "ruh" so'zi jon, hayot manbai va ilohiy nafas ma'nolarini anglatadi. Tasavvuf falsafasida esa ruh insonning ilohiy mohiyat bilan bog'lovchi asosiy unsuri sifatida qaraladi. Mutafakkirning fikricha, insonning haqiqiy mohiyati uning jismida emas, balki ruhida mujassamdir[3].

Masnaviyning kirish qismida keltirilgan nay haqidagi mashhur timsol ham aynan ruhning ontologik holatini ifodalaydi. Nayning nayistondan ajralishi inson ruhining ilohiy manbadan ajralishini, uning mungli ovozi esa ruhning qayta birlashishga bo'lgan intilishini anglatadi. Ushbu ramziy talqin Rumiylar falsafasida ruh kategoriyasining markaziy o'rin tutishini ko'rsatadi. Masalan:

*Tingla naydin, chun hikoyat aylagay,
Ayriliqlardin shikoyat aylagay[2].*

Rumiylar merosidagi eng murakkab falsafiy kategoriyalardan biri vujud tushunchasidir. Arab tilidagi "vujud" so'zi mavjudlik, bor bo'lish va mavjudlik holati ma'nolarini bildiradi. Tasavvufda esa vujud masalasi borliqning mohiyati va uning manbai bilan bog'liq ravishda talqin qilinadi. Rumiylar qarashlariga ko'ra, haqiqiy vujud faqat mutlaq borliqqa xosdir. Inson va tabiatdagi barcha mavjudotlar esa ushbu mutlaq vujudning turli darajadagi namoyon bo'lish shakllari sifatida qaraladi. Shu sababli insonning vazifasi tashqi mavjudlik bilan cheklanib qolmasdan, vujudning asl mohiyatini anglashga intilishdan iboratdir. Masalan:

*Chun tomirning zarbidin bo'lgay ayon,
Kim emish bu qizga maqsudi jahon[2].*

Yuqorida kelgan mana shu ikki qator misra mazmuni shundaki, Masnaviyda "Podshoh va kaniz" hikoyasi mavjud, ushbu hikoyaning mazmuni, vujud va ruhning o'rtasida chambarchas bog'liqlik borligini ham namoyon qilish edi, chunki bu ikki qatorli misrada aynan podshoh ko'ngil qo'ygan kanizga tegishlilik bor. Kanizakning ko'ngli aslida Samarqandlik zargar yigitda bo'ladi, ammo buni kanizak qiz hech kimga ochiq qamalgan qushdek betoblanib qoladi, uning tilidan bilishga imkonsiz so'zlarni, aynan tomir urishidan aniqlab olishadi va shu tariqa unga malham topishadi.

Rumiylar merosida haqiqat kategoriyasi borliqning eng oliy darajasi va inson bilish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida talqin etiladi. "Haqiqat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, asl,

chin, o'zgarmas va mutlaq borliq ma'nolarini anglatadi. Tasavvuf falsafasida esa haqiqat inson idrokidan tashqaridagi mutlaq ilohiy borliqni anglash darajasi sifatida qaraladi. Haqiqatga erishish jarayoni insonning o'z nafsidan voz kechishi va ruhiy poklanishi bilan bog'liqdir. Masalan:

*Haq sharobi quyqasidir mushknob,
Bodaning osti taxir, ichmoq azob[2].*

Masnaviyda haqiqat ko'pincha nur, dengiz va quyosh kabi timsollar orqali ifodalanadi. Bu ramzlar haqiqatning cheksizligi, yagona manbaga ega ekanligi va barcha mavjudotlar unga bog'liqligini ifodalaydi.

Ma'rifat Rumiy falsafasida bilishning eng yuqori shakli sifatida qaraladi. "Ma'rifat" so'zi arab tilidan kelib chiqqan bo'lib, bilish, anglash va tanish ma'nolarini bildiradi. Tasavvufiy talqinda esa ma'rifat faqat aqliy bilim emas, balki qalb orqali idrok etiladigan ilohiy haqiqatni anglashdir.

*Garchi zulmat ichra uyquga sabot,
Lek o'shal zulmatdadir obi hayot.
Yangilanmasmu aqlar tun aro,
Tarqalib har yon naqlar tun aro[2].*

ushbu to'rtlikda kelganki, insonning tafakkuri asli tun kechalarida oydinlashadi, shu jumladan insondagi ma'rifiyatlar ham yanada takomillashadi.

Masnaviyda ma'rifat ko'pincha nur, ochilish va uyg'onish timsollari orqali ifodalanadi. Bu esa inson ongining ilohiy haqiqatga ochilishi jarayonini bildiradi.

Komil inson g'oyasi Rumiy ta'limotining markaziy axloqiy-falsafiy konsepsiyalaridan biridir. Komil inson - bu nafs ustidan g'alaba qozongan, ruhiy jihatdan poklangan va ilohiy haqiqatga yaqinlashgan shaxsdir. U nafaqat o'zini anglaydi, balki butun borliqning birligini ham idrok etadi. Masalan:

*Kimda yo'qdir ishqqa bir parvo agar,
Ul qanotsiz qush erur, bebolu par[2].*

Masnaviyda komil inson obrazi ko'pincha murshid (yo'l ko'rsatuvchi) va oshiq timsollarida namoyon bo'ladi. U boshqalarga ma'naviy yo'l ko'rsatadi va ularni haqiqat sari yetaklaydi.

Ilohiy birlik Rumiy falsafasining eng yuqori ontologik bosqichi hisoblanadi. Bu konsepsiya tasavvufda "vahdat ul-vujud" deb ataladi va borliqning yagona ilohiy manbaga ega ekanligini ifodalaydi. Har bir tomchi dengizdan ajralgan bo'lsa-da, aslida uning ajralmas qismidir. Xuddi shunday, inson ham ilohiy birlikning bir ko'rinishidir.

*Ko'rdi Iblis, dedi: menga tengmikin?
Ul-ku tuproq, men esam otashjabin[2].*

Rumiy falsafasida ilohiy birlikni anglash insonni ma'naviy erkinlik va ruhiy mukammallikka olib boruvchi eng oliy bosqich hisoblanadi.

William Chittick Rumiy falsafasini Ibn Arabiy metafizikasi bilan qiyoslab, undagi "vahdat ul-vujud" g'oyasini asosiy ontologik paradigma sifatida talqin qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, Rumiyda borliq yagona ilohiy haqiqatning turli darajadagi tajalliylari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv mazkur tadqiqotda ham qisman qo'llab-quvvatlanadi, biroq Rumiy merosida ishq kategoriyasining markaziy ontologik kuch sifatidagi o'rni alohida ta'kidlanadi[10]. Shuningdek, Annemarie Schimmel Rumiy ijodini asosan poetik ramzlar va ma'naviy tajriba tili orqali tahlil qilib, uning asarlarida ishq va ruhiy kamolot g'oyalarining estetik ifodalanishiga urg'u beradi. Schimmelning yondashuvida Rumiy she'riyati ko'proq diniy-ruhiy tajribaning badiiy ifodasi sifatida ko'riladi. Mazkur tadqiqot esa ushbu qarashlarni kengaytirgan holda, Ramziy ifodalar ortidagi falsafiy kategoriyalarning ontologik va epistemologik asoslarini ochib berishga intiladi[9]. Sharq ilmiy an'anasida esa Seyed Hossein Nasr Rumiy falsafasini islomiy metafizika doirasida talqin qilib, uning ta'limotini ilohiy bilim (ilm al-ladunniy) bilan bog'laydi. Nasrga ko'ra, Rumiyda ma'rifat va haqiqat tushunchalari insonning bevosita ruhiy tajribasi orqali anglandigan ilohiy bilim shaklidir. Ushbu qarashlar mazkur tadqiqotda ma'rifat kategoriyasining epistemologik mohiyatini yoritishda muhim nazariy asos sifatida qabul qilindi[9].

Ushbu tadqiqot natijasida Jaloliddin Rumiy merosida uchraydigan asosiy falsafiy kategoriyalar - ishq, ruh, vujud, haqiqat, ma'rifat, komil inson va ilohiy birlik - o'zaro uzviy bog'liq

bo'lgan yaxlit ontologik tizimni tashkil etishi aniqlanadi. "Masnaviyi ma'naviy" asari tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu kategoriyalar oddiy badiiy yoki diniy tushunchalar emas, balki insonning borliqni anglash va ma'naviy kamolotga erishish jarayonini ifodalovchi falsafiy konseptlardir.

Jaloliddin Rumi falsafasida kategoriyalar tizimli va integrativ xarakterga ega bo'lib, ular alohida tushunchalar emas, balki yagona tasavvufiy-ontologik tizimning tarkibiy qismlaridir. Rumi merosida ishq kategoriyasi markaziy o'rin tutib, boshqa barcha falsafiy kategoriyalarning harakatlantiruvchi asosi sifatida namoyon bo'ladi. Ilohiy birlik g'oyasi Rumi falsafasining yakuniy ontologik bosqichi bo'lib, borliqning yagona ilohiy manbaga ega ekanligini asoslaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Arberry A. J. Rumiyning mistik she'rlari. Chikago universiteti matbuoti, 2007.
2. Masnaviyi ma'naviy. Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimai. – Toshkent. 2005. 1-kitob. – 392 b.
3. Nasr Seyid Husayn. Haqiqat bog'i: tasavvufning qarashlari va amaliyoti. Harper One, 2007.
4. Palmer Richard E. Hermeneutics: interpretation theory in Schleiermacher, Dilthey, Heidegger, and Gadamer. 2019. – 307 p.
5. Rumi Jaloliddin. Divani Kebir. Tahrir: A. Dhanaraj, 2007.
6. Rumi Jaloliddin. Masnaviyi Ma'naviy. Tahrir: B. Zarrabi. 2015.
7. Safaviy Muhammad. Islom falsafasi va tasavvuf: Jalol al-Din Rumiyning hissasi haqida mulohaza. Kembrij Universiteti matbuoti, 2010.
8. Samadov J. Jaloliddin rumiy asarlarida falsafiy tushunchalar va ularning ilmiy–metodologik tahlili. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. 5 (1s). 2025. – Pp. 119-123.
9. Seyyed Hossein Nasr. Rumi and the Sufi Tradition. Studies and comparative religion, Vol. 8, No. 2. 2010. – 15 p.
10. William C. Chittick. The Religion of Love Revisited. Journal of the Muhyiddin Ibn Arabi Society, Volume 54, 2013.

REZYUME:

Mazkur maqolada Jaloliddin Rumi merosida uchraydigan asosiy falsafiy kategoriyalar – ishq, ruh, vujud, haqiqat, ma'rifat, komil inson va ilohiy birlik tushunchalarining ontologik tabiati, etimologik genezisi hamda tasavvufiy interpretatsiyasi "Masnaviyi ma'naviy" asari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Rumi, Masnaviyi ma'naviy, ishq, ruh, vujud, haqiqat, ma'rifat, komil inson, ilohiy birlik, tasavvuf falsafasi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются основные философские категории наследия Джалалиддина Руми – любовь, дух, бытие, истина, познание, совершенный человек и божественное единство – с точки зрения их онтологической природы, этимологического генезиса и суфийской интерпретации на основе произведения «Маснави-и маънави».

Ключевые слова: Руми, Маснави-и маънави, любовь, дух, бытие, истина, познание, совершенный человек, божественное единство, суфийская философия.

REZYUME:

This article analyzes the main philosophical categories in the heritage of Jalal al-Din Rumi – love, spirit, being, truth, knowledge, the perfect human, and divine unity – in terms of their ontological nature, etymological genesis, and Sufi interpretation based on the work "Masnavi-i Ma'navi."

Keywords: Rumi, Masnavi-i Ma'navi, love, spirit, being, truth, knowledge, perfect human, divine unity, Sufi philosophy.